ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

University of innovation technology

“Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi

P.f.f.d (PhD) v.b. dotsent

Nasriddinova Nasiba Alimjonovna

Nabiyeva Sarvinoz Baxtiyor qizi

Guliston davlat pedagogika instituti

I-bosqich magistranti

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya.Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Ularning yoshlariga mos holda ma’lumotlar ko‘rib chiqilgan. Ona tili fanining mustaqil va ijodiy fikrlashini shakllantirishdagi o‘rni asoslab berilgan. Maqolada ona tili darslarini tashkil etishda qo‘llaniladigan interfaol metodlar, ijodiy topshiriqlar, muammoli savollar va hayotiy vaziyatlarga asoslangan mashg‘ulotlarni o‘quvchilarning nutqiy faolligi hamda ijodiy tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, o‘qituvchining pedagogik mahorati, dars jarayonida qulay psixologik muhit yaratish va o‘quvchi fikrini qo‘llab-quvvatlash metodikaning muhim omillari sifatida asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ona tili darslarida ijodiy yo‘naltirilgan metodlardan samarali foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi, ularning og‘zaki va yozma nutqini boyitadi hamda ta’lim samaradorligini oshiradi. Mazkur maqola boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, ona tili darslarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, ona tili darslari, ijodiy tafakkur, ijodiy fikrlash, metodika, ta’lim metodlari, interfaol metodlar, ijodiy topshiriqlar, muammoli ta’lim, nutqni rivojlantirish, mustaqil fikrlash, pedagogik yondashuv, ta’lim samaradorligi, o‘quvchi faolligi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari.

Abstract: This article discusses the issues of developing students' creative thinking in primary school native language lessons. The information is reviewed in accordance with their age. The role of the native language in the formation of independent and creative thinking is substantiated. The article reveals the importance of interactive methods used in organizing native language lessons, creative tasks, problem questions and exercises based on life situations in developing students' speech activity and creative thinking. Also, the teacher's pedagogical skills, creating a favorable psychological environment during the lesson and supporting the student's opinion are substantiated as important factors of the methodology. The results of the study show that the effective use of creatively oriented methods in native language lessons develops students' independent thinking skills, enriches their oral and written speech, and increases educational efficiency. This article is of practical importance for primary school teachers and serves to further improve native language lessons.

Keywords: primary education, native language lessons, creative thinking, creative thinking, methodology, teaching methods, interactive methods, creative tasks, problem-based learning, speech development, independent thinking, pedagogical approach, educational effectiveness, student activity, primary school students.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы развития творческого мышления учащихся на уроках родного языка в начальной школе. Информация представлена в соответствии с возрастом учащихся. Обоснована роль родного языка в формировании самостоятельного и творческого мышления. В статье показана важность интерактивных методов, используемых при организации уроков родного языка, творческих заданий, проблемно-ориентированных вопросов и упражнений на основе жизненных ситуаций, в развитии речевой активности и творческого мышления учащихся. Также обоснованы педагогические навыки учителя, создание благоприятной психологической среды во время урока и поддержка мнения ученика как важные факторы методики.Результаты исследования показывают, что эффективное использование творчески ориентированных методов на уроках родного языка развивает навыки самостоятельного мышления учащихся, обогащает их устную и письменную речь и повышает эффективность обучения. Данная статья имеет практическое значение для учителей начальной школы и служит для дальнейшего совершенствования уроков родного языка.

Ключевые слова: Начальное образование, уроки родного языка, творческое мышление, методика, методы обучения, интерактивные методы, творческие задания, проблемно-ориентированное обучение, развитие речи, самостоятельное мышление, педагогический подход, эффективность обучения, активность учащихся, учащиеся начальной школы.

Kirish va dolzarbligi. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti va ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar o‘quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishni taqozo etmoqda. Zamonaviy ta’lim faqatgina bilim berish bilangina cheklanib qolmay, balki o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, ularni hayotiy muammolarni mustaqil hal eta oladigan shaxs sifatida tarbiyalashni ham o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Ushbu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi esa, avvalo, boshlang‘ich ta’lim bosqichiga bevosita bog‘liqdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari shaxs sifatida shakllanadigan, nutqi va tafakkuri jadal rivojlanadigan muhim davrni boshdan kechiradilar. Aynan shu bosqichda o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni shakllantirish ularning keyingi ta’lim faoliyati va ijtimoiy hayotdagi muvaffaqiyatini belgilab beradi. Shu tomondan qaraganda, boshlang‘ich sinf ona tili darslari o‘quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishda yetakchi fan hisoblanadi. Ona tili darslarida o‘quvchilar so‘z boyligini oshiradi, gap va matn tuzish ko‘nikmalarini egallaydi hamda o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda ifodalashni o‘rganadi. Ushbu jarayonda ijodiy yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning tafakkur faolligini oshiradi. Ularni fikrlashga, mulohaza yuritishga va xulosa chiqarishga undaydi. Shu sababli ona tili darslarida o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bugungi ta’lim tizimi uchun dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol metodlardan, ijodiy topshiriqlardan va muammoli vaziyatlardan foydalanish orqali o‘quvchilar faolligini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ona tili darslarida ijodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan metodlardan samarali foydalanish masalasi hali ham chuqur o‘rganishni talab etadi. Shu bois mazkur maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalalarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritish dolzarb hisoblanadi. Bugungi kunda ta’lim tizimi

oldida turgan asosiy vazifalardan biri ijodkor va mustaqil fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalashdir. Bu jarayonning poydevorlari asosan boshlang‘ich ta’lim sinflarida o‘qiydilar.

Asosiy qism: Boshlang‘ich sinf ona tili darslari o‘quvchilarning nutqi va tafakkurini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ijodiy topshiriqlar, interfaol metodlar, rol o‘ynash, muammoli savollar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini kuchaytiradi. Hayotiy mavzular asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning tasavvur doirasini kengaytiradi. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish ta’lim jarayonini o‘quvchiga yo‘naltirilgan holda tashkil etishni talab etadi. O‘quvchilar nutqini o‘stirish boshqa o‘quv predmetlaridan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar bilan ham uzviy ravishda bog‘lanadi. Ona tili darslarida o‘quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar. Ular kuzatishni, o‘ylashni va ko‘rganlari, eshitganlari, o‘qiganlari haqida to‘g‘ri bayon qilishni or‘ganadilar. Ona tili darslari bolalar lug‘atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni to‘g‘ri tuzishni o‘rgatadi. Bu darslarda bolalar nutqiga, uni shakllantirish va o‘stirishga keng imkoniyat mavjud. Badiiy asarlarni o‘qish, oq‘ilganlarini qayta hikoyalash, ekskursiyada, predmet va tabiat hodisalarini kuzatish vaqtida ko‘rganlarini hikoya qilish oq‘uvchilar og‘zaki nutqini o‘stirish vositasidir. Ona tili darslarida esa yozma nutqni o‘stirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Grammatikani o‘rganish va o‘qish darslarida o‘quvchilar bajaradigan so‘z birikmasi, gap tuzish, bayon, inshoga doir turli xil mashqlar nutqiy malakalarni egallashda yordam beradi. Grammatika va to‘g‘ri yozuv darslarida tilni maxsus or‘ganish bilan bolalar alohida tovush, bo‘g‘in, so‘z va gaplarni eshitishga va talafluz qilishishga o‘ganadilar. Ular narsa, harakat, belgi bildirgan ko‘pginza soz‘larni, shuningdek, tovush, harf, bo‘g‘in, so‘z, o‘zak, qo‘shimcha, so‘z turkumi, ot, sifat, fe’l, son, olmosh, bogl‘ovchi, gap, gap bo‘lagi, darak gap, sor‘oq gap, undov gap singari juda ko‘p yangi atamalarni bilib oladilar. Boshlang‘ich sinflardagi boshqa darslarda ham o‘quvchilar nutqi xilma-xil soz‘lar bilan boyitiladi. Kuzatish va turli ko‘rgazmali qurollar bu darslarda ham bilim olish, tushunchalarni shakllantirish vositasi hisoblanadi. Ijodiy tafakkur o‘quvchining mustaqil fikrlashi, yangi g‘oyalarni ilgari surishi, til birliklaridan erkin foydalanishi orqali namoyon bo‘ladi. Shu sababli ona tili darslari mazmuni faqat grammatik bilimlarni o‘rgatish bilangina cheklanmasdan, o‘quvchilarning tafakkur faoliyatini faollashtirishga xizmat qilishi lozim. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ona tili darslarida ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun hayotiy tajribaga tayangan holda ishlash muhim hisoblanadi. O‘quvchilar o‘z hayoti, kundalik faoliyati, atrof-muhit bilan bog‘liq mavzular asosida fikr bildirganlarida, ularning nutqiy faolligi oshadi va mustaqil fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning so‘z boyligini kengaytirib, ularni fikrini mantiqiy va izchil ifodalashga o‘rgatadi. Ijodiy tafakkurni rivojlantirishda ijodiy yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar muhim o‘rin tutadi. Matn bilan ishlash jarayonida o‘quvchilar mazmunni tushunish, uni tahlil qilish va qayta ifodalash orqali fikrlash jarayonini yanada oshiradi va ijodiy tafakkurlarini yanada boyitadi. Matnni davom ettirish, mazmunini o‘zgartirib hikoya qilish yoki berilgan so‘z va iboralar asosida yangi gaplar tuzish o‘quvchilarning tasavvurini kengaytiradi hamda ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. O‘quvchilar nutqini o‘stirishda o‘qituvchining nutq madaniyati katta ahamiyatga ega. O‘qituvchi barcha darslarda, sinfdan va maktabdan tashqari mashg‘ulotlarda faqat orfoepik talaffuz va adabiy til me’yorlariga rioya qilgan holda ifodali, ta’sirli so‘zlashi, shuningdek, har doim o‘quvchi daftariga, barcha hujjatlarga husnixat va imlo qoidalariga rioya qilgan holda yozishi zarur. Bu bilan u bolalarni ifodali so‘zlashga, xatosiz, chiroyli yozishga o‘rgatadi va tilga sezgirlikni uyg‘otadi. Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish ijodiy tafakkurni shakllantirishning samarali vositalaridan biri sanaladi. Ushbu metodlar orqali o‘quvchilar dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi, o‘z fikrlarini erkin ifodalashga o‘rganadi va boshqalarning qarashlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish ko‘nikmasini egallaydi. Natijada o‘quvchilarda muloqot madaniyati, mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlari rivojlanadi. Shuningdek, dialogik nutqni rivojlantirishga qaratilgan faoliyatlar ham ijodiy tafakkurning shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchilar suhbat jarayonida fikr almashar ekan,

so‘zlarni o‘rinli qo‘llash, gap tuzish va o‘z nuqtayi-nazarini asoslashni o‘rganadilar. Bu esa ularning og‘zaki nutqini rivojlantirish bilan bir qatorda, ijodiy tafakkurining faollashuviga xizmat qiladi. Muammoli vaziyatlarga asoslangan savollar orqali o‘quvchilarning tafakkur faolligini oshirish mumkin. Bunday savollar o‘quvchini fikrlashga, solishtirishga va xulosa chiqarishga undaydi. Natijada o‘quvchilar tayyor bilimlarni qabul qiluvchi emas, balki bilimlarni mustaqil ravishda o‘zlashtiruvchi shaxs sifatida shakllanadi. O‘qituvchining pedagogik mahorati va dars jarayonida yaratilgan psixologik muhit ijodiy tafakkurni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. O‘quvchi fikrini qo‘llab-quvvatlash, uni rag‘batlantirish va xatolardan qo‘rqmasdan fikr bildirishga undash ijodiy muhitni shakllantiradi. Bunday sharoitda o‘quvchilar kelgusidagi ishlarida o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon etishga undaydi. Interfaol metodlar ham bunga talaygina yordam beradi.

Metodlar: Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol metodlardan, ijodiy topshiriqlardan va muammoli vaziyatlardan foydalanish orqali o‘quvchilar faolligini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ona tili darslarida ijodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan metodlardan samarali foydalanish masalasi hali ham chuqur o‘rganishni talab etadi. Shu bois mazkur maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalalarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritish dolzarb hisoblanadi.

Evristik suhbat metodi: O‘qituvchi savollar orqali o‘quvchini yangi xulosalarga olib keladi. Savollar oddiydan murakkabga qarab tuziladi.

Natija: o‘quvchilarning og‘zaki nutqi, mantiqiy va ijodiy tafakkuri rivojlanadi.

Aqliy hujum (Brainstorming) metodi: Berilgan mavzu yoki matn asosida o‘quvchilar erkin fikr bildiradilar. Hech bir fikr tanqid qilinmaydi.

Natija: o‘quvchilarda erkinlik, faollik va ijodkorlik shakllanadi.

Matn yaratish metodi: O‘quvchilarga rasm asosida matn tuzish, matnni davom ettirish, sarlavha topish, matnni qayta hikoyalash kabi topshiriqlar beriladi.

Natija: yozma nutq, tasavvur va ijodiy fikrlash rivojlanadi.

Didaktik o‘yinlar metodi: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun o‘yin faoliyati yetakchi hisoblanadi. Masalan: “So‘z zanjiri”, “Ortiqcha so‘zni top”, “Gapni davom ettir”.

Natija: darsga qiziqish va ijodiy faollik oshadi.

Xulosa: Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bugungi ta’lim tizimining muhim va dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Tutli tadqiqotlar jarayonida aniqlanishicha, ijodiy tafakkur o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, nutqiy faolligi va bilimlarni ongli o‘zlashtirishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois ona tili darslarini ijodiy yo‘naltirilgan holda tashkil etish o‘quvchilarning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Maqolada yoritilgan ilmiy-nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlangan metodlar ularning ijodiy tafakkurini samarali rivojlantiradi. Xususan, o‘quvchilarning hayotiy tajribasiga tayangan holda tashkil etilgan mashg‘ulotlar, matn bilan ishlashning ijodiy shakllari hamda interfaol metodlardan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Shuningdek, ona tili darslarida qulay psixologik muhit yaratish, o‘quvchi fikrini qadrlash va rag‘batlantirish orqali ularning o‘z

imkoniyatlarini erkin namoyon etishiga sharoit yaratiladi. Bu holat o‘quvchilarda fikr bildirishga bo‘lgan ishonchni kuchaytirib, ijodiy faollikning oshiradi. Natijada o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqi rivojlanib, mustaqil va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi. Umuman olganda, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvlar ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur maqolada keltirilgan nazariy xulosalar va metodik tavsiyalar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, ona tili darslarini samarali tashkil etishda muhim manba bo‘la qoladi. Umumiy qilib aytganda, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ijodiy yo‘naltirilgan metodlar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, nutq madaniyatini va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida ijodiy tafakkurni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish ta’lim samaradorligini oshiradi. Zamonaviy yondashuvlar o‘quvchilarni ijodkor shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo‘ldoshev J.G‘. Boshlang‘ich ta’limda ijodiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

2. Raxmonov B.X. Boshlang‘ich sinf ona tili ta’limida o‘quvchilarning nutqiy va ijodiy kompetensiyalarini shakllantirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.

3. Abdullayeva M.M. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ona tili darslarini tashkil etish. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2021.

4. Ismoilova N.A. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi. Pedagogika va ta’lim ilmiy jurnali, 2022, №3.

5. To‘xtayeva D.O. Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish orqali o‘quvchi faolligini oshirish. Xalq ta’limi jurnali, 2022, №6.

6. Qodirova G.S. Boshlang‘ich ta’limda nutqni rivojlantirish va ijodiy yondashuv masalalari. – Toshkent: Akademnashr, 2023.

7. Karimov U.Sh. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirish masalalari. Zamonaviy ta’lim jurnali, 2023, №4.

8. Sattorova R.T. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida ijodiy topshiriqlardan foydalanish metodikasi. Pedagogik mahorat jurnali, 2024, №2.

9. Mirzayeva L.B. O‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda o‘qituvchining pedagogik mahorati. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2024.

10. Usmonova S.K. Boshlang‘ich ta’limda ona tili fanini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar. Ilm-fan va ta’lim ilmiy jurnali, 2025, №11.Qosimov A. Boshlangɔich taəlim metodikasi. – Toshkent, 2020.

12. Ona tili o‘qitish metodikasi. Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabari uchun darslik.Toshkent ”NOSIR”’ nashriyoti 2009.